



UDK:81(46)

Ozodbek DANABEKOV,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: danabekovozodbek98@gmail.com

O'zMU dotsenti, f.f.n A.Ubaydullayev taqrizi asosida

TOPONYMS IN THE POEM "LAYLI AND MAJNUN"

Abstract

This article analyzes the geographical names found in the text of the epic from a linguistic point of view. The lexical-semantic, stylistic and functional properties of toponyms, their role in the poetic text are considered. The article also studies the historical-etymological roots of geographical names and the process of their transformation into artistic meaning. The results of the research shed light on the peculiarities of Alisher Navoi's language and artistic style and show the linguistic significance of the concept of space in his works. This work serves as the basis for scientific research aimed at a deeper understanding of the linguopoetic properties of the language of classical literature.

Key words: Alisher Navoi, "Layli and Majnun", toponymic terms, geographical names, lexical-semantic properties.

ТОПОНИМЫ В ПОЭМЕ «ЛЕЙЛИ И МЕДЖНУН»

Аннотация

В данной статье анализируются географические названия, встречающиеся в тексте эпоса, с лингвистической точки зрения. Рассматриваются лексико-семантические, стилистические и функциональные свойства топонимов, их роль в поэтическом тексте. Также в статье изучаются историко-этимологические корни географических названий и процесс их трансформации в художественное значение. Результаты исследования проливают свет на особенности языка и художественного стиля Алишера Навои и показывают лингвистическую значимость концепта пространства в его произведениях. Данная работа служит основой для научных исследований, направленных на более глубокое понимание лингвопоэтических свойств языка классической литературы.

Ключевые слова: Алишер Навои, «Лейли и Меджнун», топонимические термины, географические названия, лексико-семантические свойства.

"LAYLI VA MAJNUN" DOSTONIDAGI TOPONIMLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonida uchraydigan toponimlarning leksik-semantik, stilistik va funksional xususiyatlari, ularning poetik matndagi roli ko'rib chiqiladi hamda doston matnida uchraydigan geografik nomlar tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada geografik nomlarning tarixiy-etimologik ildizlari va ularning badiiy ma'noviy xususiyatlari o'rganiladi. Tadqiqot natijalari Alisher Navoiyning til va badiiy uslubidagi o'ziga xosliklarni yoritib, uning asarlaridagi makon tushunchasining tilshunoslik jihatidan ahamiyatini ko'rsatadi. Mazkur ish mumtoz adabiyot tilining lingvopoetik xususiyatlarini chuqurroq anglashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, "Layli va Majnun", toponim terminlar, geografik nomlar, leksik-semantik xususiyatlar.

Kirish. Alisher Navoiy badiiy tafakkurining yuksak namunasi sanalgan "Xamsa" turkumidagi dostonlar, ayniqsa "Layli va Majnun" asari, nafaqat adabiy-badiiy jihatdan, balki tilshunoslik va terminologiya nuqtayi nazaridan ham alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur dostonning leksik qatlamida o'z davrining turli fan sohalari, kasb-hunar yo'nalishlari, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va dini hayoti bilan bog'liq ko'plab terminlar ishlatilgan. Xususan, astronomiya, tibbiyot, musiqa, harbiy soha, konchilik, ilohiyot, hayvonot va o'simlik dunyosi, shuningdek, toponimga doir terminlarning izchil va badiiy kontekstda qo'llanishi dostonning leksik imkoniyatlarini kengaytirgan. Ushbu holat Navoiy asarlarini lingvistik va onomastik tahlil etishda dolzarb omillardan biri sifatida maydonga chiqadi.

Har qanday badiiy matn muayyan zamon va makonda yuz beradigan voqealarni tasvirlash orqali o'ziga xos til va makon tizimini yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazardan olganda, geografik nomlar, ya'ni toponimlar badiiy matnning semantik, stilistik va pragmatik qatlamlarida muhim vazifa bajaradi. Bunday nomlar orqali nafaqat makon belgilanadi, balki ular obrazlarning ijtimoiy kelib chiqishi, madaniy qarashlari va

muhit bilan bog'liqligi hamda muallifning badiiy-estetik dunyoqarashi haqida ham ma'lumot beradi [1]. Maqola uchun tanlangan asardagi mavjud istilohlar asar yaratilgan davr haqida ma'lumot berishi bilan birgalikda, o'sha davr tili, uslubiylati haqida o'rganish imkonini beradi.

Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni bu borada alohida e'tiborga loyiqdir. Dostonning tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilishi, ayniqsa, unda ishlatilgan geografik nomlarning til birliklari sifatidagi xususiyatlarini aniqlash, ularning leksik-semantik xususiyatlari, uslubiy roli va konnotativ ma'nolarini tahlil qilish orqali Navoiy tilining poetik mohiyatini anglashga xizmat qiladi [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Toponimlarning til tadqiqi, asosan, onomastika, toponimika va leksikologiya bilan bog'liq. Bunday nomlar har doim ham faqat denotativ ma'no bilan cheklanib qolmay, balki metaforik, assotsiativ yoki emotsional yuklama kasb etadi. Tilshunoslikda toponimlarning o'rganilishi qator tadqiqotlardan o'rin olgan bo'lib, xususan, B.Bafoyevning "Navoiy asarlari leksikasi" nomli asarida toponimlar tadqiqi bevosita xalq tarixi bilan integratsiya qilinadi. Ko'p hollarda mikro va makrotoponimlarda uzoq

o'tmishning "belgi"lari saqlanib qoladi. Mana shu "belgi"lar vositasida mazkur joy yoki millat tarixi yana yangi qo'shimcha faktlar bilan boyiydi, xalq tasavvuridagi ayrim noto'g'ri xulosa, qarashlar faktlar asosida oydinlashtirilishi B. Bafoyevning bu borada olib borgan tadqiqotlarida o'z aksini topgan [3].

Sh.Rahmonovning "Badiiy matndagi toponimlarning stilistik xususiyatlari" nomli maqolasida ham "Layli va Majnun" dostonida uchraydigan "Najd", "Yaman", "Rum", "Shom" kabi nomlar muayyan joylarni bildiruvchi birliklar bo'lishdan tashqari, ular semantik jihatdan kengaygan, uslubiy boyitilgan, matn kontekstida poetik transformatsiyaga uchragan toponimlar sifatida ta'riflanadi [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada qiyosiy-tarixiy, tasnifiy va tavsifiy metodlardan foydalanildi, tanlangan birliklarning semantik xususiyatlari tadqiq etildi.

Tahlil va natijalar. Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonida joy nomlari – toponimlar muhim badiiy va ma'naviy funksiyani bajaradi. Ushbu toponimlar nafaqat geografik makonni belgilovchi elementlar, balki doston voqealarining tarixiy-madaniy kontekstini ochuvchi, shuningdek, obrazlarning ichki kechinmalarini, tasavvufiy va falsafiy mazmunlarni yorituvchi vositalar sifatida xizmat qiladi.

Navoiy dostonida Ganja, Kašmir, Tur, Bobul, Ka'ba, Ćin, Yaman, Abuqubays, Izam, Ayman, Najd, Jayhun, Arafot, Xo'tan, Eram Farang, Rum va boshqa toponim terminlarni qo'llaydi:

"Navoiy asarlar lug'ati"da Ganja shahriga Ozarbayjonda Nizomiy tug'ilib o'sgan va dafn etilgan shahar deb ta'rif berilgan [5]: Ganja hakimi ta'rifidakim, ganji Qorun aning "Panj ganji" qoshida ganj olida vayronadek ko'rungay [6]. Ya'ni Nizomiyning adabiy merosi oldida Qorun xazinasi hech narsa emas, uning xazinasi avlodlarga yetgulik, Qorun xazinasi esa vaqtincha. Nizomiy tavsifi bilan uyg'unlashib, buyuk shoir va mutafakkirlarning vatani sifatida madaniy merosga ishora qiladi. Bu shahar dostonning milliy va tarixiy ildizlarini ta'kidlaydi. Bizning nazarimizda, Ganja toponimining yasaliş asosi ham "boylik" ma'nosini anglatuvchi "ganj" leksemasiga borib taqaladi, so'z asosiga -a affiksining qo'shiluvi orqali "boy shahar", "boylik shahri" ma'nosi anglashila boshlagan.

Shuningdek, "Layli va Majnun" asarida Xo'tan toponimi ham tilga olinadi: "Laylini ko'rgach qurbon qo'yi bila Xo'tan jayranining yiqilmog'i va har qaysini bir vasila bila o'z qabilalarig'a eltmoqlari".

Xo'tan shahri "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"da Qoshg'ar tumaniga kiruvchi voha va shahar deya izohlangan [7]. Merriam Webster lug'atida Xo'tan shahrining hozirgi kundagi joylashuvi quyidagicha ta'kidlangan: "G'arbiy Xitoyning Shinjon-Uyg'ur mintaqasidagi Taklamakan cho'lining janubiy chekkasidagi shahar va voha" (KHOTAN Definition & Meaning - Merriam-Webster).

So'zning kelib chiqish tarixi esa o'ziga xos: "Xo'tan va uning atrofidagi huquq qadimgi sanskrit kosmologik matnlarida dastlab Godana shaklida qo'llangan. Xitoyliklar bu nomni o'rta xitoychada Gudana (zamonaviy xitoy tilida yutian) deb talaffuz qilingan ying'in so'ziga bog'lashgan va oxir-oqibat ushbu so'z Xo'tan shaklini olgan. VII asrda yashagan xitoylik buddist rohib Syuantszang bu leksik tadrijning mohiyatini anglashga harakat qiladi va u sanskrit tilini yaxshi bilgani holda ushbu so'zning tarixiy shakli, aslida, Kustana ekanligini qayd etadi va bu so'z "yerning ko'kragi" ma'nosiga ega ekanligini ta'kidlaydi" [8]. Ayrim manbalarda esa Xo'tan so'zining etimoni tibetcha ekanligi ko'zga tashlanadi. Ushbu tilidagi "sigirlar mamlakati" ma'nosini anglatuvchi Gostana birligi Xo'tan so'zining tarixiy shakli ekanligi aytib o'tilgan [9].

Bundan tashqari, Kashmir toponimik leksikasi ham asar tiliga xos: "Hind sohirinikim, Kashmir jodulari aning olida ip

esha olmaslar (LM,26). Ushbu so'zning kelib chiqish etimologiyasi xususida xilma-xil fikrlar mavjud. Ulardan birida "Kashmir so'zi sanskritcha kāśmīr so'zidan kelib chiqqan. Ma'nosi: "Suv yetishmasligi tufayli qurigan yerdir" deya qayd etilgan bo'lsa (Wikipedia/Kashmir), ba'zi tarixiy manbalarda uning asl shakli sifatida Kasmir bo'lganligi, talaffuz qulayligiga erishish maqsadida "s" harfining "sh" shaklida holda talaffuz qilinganligi hamda "sehrler shahri" ma'nosi mavjudligi ta'kidlanadi. Beruniy asarlarida ham Kashmir hududining o'ziga xosligi borasidagi muhim qaydlar uchraydi: "Kashmir – atrofi chiqib bo'lmaydigan yuksak tog'lar bilan o'ralgan cho'llikda joylashgan. Kashmiring janub va sharq tomonida hindlar, g'arb tomonida bir qancha podshohlar bo'lib, u podshohlarning eng yaqini Balurshoh, keyin Shug'unshoh va to Badaxshon chegaralarigacha borgan Vahonshohdir. Uning shimoli va sharq tomonining ayrim qismida Xo'tan va Tibet turklariga tegishli yerlar bor" [10].

"Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati" 4-jildida Kashmir toponimiga quyidagicha izoh beriladi:

"1. Afg'onistonning Bust vohasidagi viloyat va qishloq.

2. Shimoliy Hindistondagi voha va shahar".

Dostonida qo'llanilgan Ka'ba, Yasrib, Najd, Yamam, Arofot, Abuqubays, Izam, Ayman kabi Arabiston yarim orolidagi muqaddas joy nomlari dostonidagi diniy mazmun va ruhiy-falsafiy g'oyalarni chuqurroq ochib beradi. Bu toponimlar orqali shoir sevgi mavzusini nafaqat dunyoviy, balki ilohiy va ma'naviy yuksalish yo'li sifatida tasvirlaydi hamda uni tasavvufiy tafakkur bilan uyg'unlashtiradi.

"Alisher Navoiy asarlar tilining izohli lug'ati" 2-jildida Ka'ba so'zining quyidagi ma'nolari keltirilgan:

"Ka'ba – 1. Makka shahridagi ziyoratgoh, muqaddas sayilgoh, musulmonlar qiblasi; 2.Ko'ngil; 3. Murod-maqсад" [11]

E'joz ila sihr aro tafovut,

Bor onchaki Ka'ba o'lida but.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da ham Ka'ba so'zi musulmonlarning Makkadagi ziyorat qiladigan, ibodat qiladigan muqaddas joyi kabi ma'nolarida keladi [12].

Arabistonda joylashgan Yasrib va Najd singari toponimlar doston badiiy tasvirini ochib berishda mohirona foydalanilgan:

"Alisher Navoiy asarlar tilining izohli lug'ati"da Yasrib toponimining Arabistondagi Madina shahrining qadimiy nomi ekanligi ta'kidlangan:

Gah Yasrib uza bu barq inib tez,

Zulmatqa ashi'asi ziyorez.

"Alisher Navoiy asarlar tilining izohli lug'ati"da Najd terminiga Arabiston yarim orolidagi viloyat va tog' deb ta'rif berilgan bo'lib, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da alohida ta'riflanmagan:

Gah Najd uza o't choqib jahong'a,

Shu'la chekib ul o't osmong'a.

Bu bayt orqali muallif olov, shu'la va osmon obrazlari orqali yuksalish, uyg'onish va ilohiy darajaga ko'tarilish g'oyasini ifoda etmoqda. Bu uyg'onish Najd mintaqasidan boshlanib, asta-sekin butun jahonni qamrab oladi va nihoyat ilohiy darajaga yetadi degan g'oyani ilgari suradi.

Jayhun (Amudaryo, arabcha "katta" ma'nosiga ega) kabi daryo nomlari, shuningdek, Eram (qadimgi Yaman bog'i) va Rum, Farang kabi qadimgi geografik atamalar orqali Navoiy o'z davrining butun Sharq va G'arb olamini she'riy matn orqali aks ettiradi. Bu toponimlar dostonning global fazoviy tasvirini yaratadi.

Eram – "qadimgi Yaman davlatida afsonaviy go'zal, xushhavo bir bog'ning nomi":

O'rtar edi bu o't ul sanamni,

Do'zaxqa solib guli Eramni.

Rum – “o‘rta asrlarda hozirgi Kichik Osiyo (Vizantiya) va Gretsiya yerlari shunday atalgan”:

Kim, Rum aro chekib manori,

Boqturdi ani Farang sori.

Farang – “qadimda G‘arbiy Yevropani shunday atashgan”:

Kim, Rum aro chekib manori,

Boqturdi ani Farang sori.

Doston matnida uchraydigan toponimlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, har bir joy nomi o‘ziga xos semantik qatlamga ega.

Xulosa va takliflar. Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostonidagi toponimlar poetik matnning semantik, stilistik va funksional qatlamlarini yoritishda alohida o‘rin egallaydi.

Asarda ishlatilgan geografik nomlar nafaqat makonni ifodalovchi til birliklari sifatida, balki badiiy-estetik ifoda vositasi, tarixiy-madaniy konnotatsiyalarga ega bo‘lgan lingvopoetik birliklar sifatida ham xizmat qilgan.

Lingvistik jihatdan olganda, mazkur toponimlar metaforik, konnotativ va poetik yuklama kasb etib, asarning badiiy-estetik qiymatini oshirgan. Ularning semantik tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu nomlar faqat nominativ funksiyani emas, balki ekspressiv-emotsional, simvolik va tasavvufiy-falsafiy funksiyalarni ham bajaradi. Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostoni orqali toponimlarga san‘atkorona yondashib, ularni poetik kontekstda kuchli semantik va stilistik vositaga aylantirgan.

ADABIYOTLAR

1. Normurodov A. Toponimika asoslari. – Samarqand, 2008. – B. 13–14.
2. Islomov X. Til va adabiyotda onomastik birliklar. — Toshkent: Fan, 2016. – B. 49–50.
3. Bafoev B. Navoiy asarlar leksikasi. – Toshkent: Fan, 1983 – B. 41.
4. Rahmonov Sh. “Badiiy matndagi toponimlarning stilistik xususiyatlari” // O‘zMU ilmiy axboroti, 2020, №1. – B. 83.
5. Navoiy asarlari lug‘ati. Toshkent: Fan, 1972. – 784 b.
6. Navoiy, A. Layli va Majnun. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2020. – 368 b.
7. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. IV jild. – Toshkent: Fan, 1985. – 476 b.
8. Higgins, Benjamin (November 1962). "The Philippines. Public Policy and National Economic Development. By Frank Golay. Ithaca: Cornell University Press, 1961. Xviii, 455. Map, Tables, Index, Bibliographic Essay". The Journal of Asian Studies. 22 (1): 114–116. doi:10.2307/2049929. JSTOR 2049929
9. Wang, Bangwei; Sen, Tansen (2011). India and China: Interactions through Buddhism and Diplomacy: A Collection of Essays by Professor Prabodh Chandra Bagchi. Anthem Press. p. 186. ISBN 9780857288219.
10. Beruniy, Abu Rayhon. Tanlangan asarlar. II tom. Toshkent: Fan nashriyoti, 1965. – 528 b.
11. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. II jild. – Toshkent: Fan, 1983. – 464 b.
12. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jild / Bosh muharrir M. Mirojiev. – Toshkent: Akademnashr, 2023. – 512 b.